

SHE'RIY JANRLAR VA SHAKLLARNING NAZARIY ASOSLARI

Feruz Normurotovna Buriyeva

Assistent-o`qituvchi, O`zbekiston-Finlandiya

pedagogika institute O`zbekiston, Samarqand

feruzaburiyeva79@mail.ru, telefon: (91) 544-98-79

Annotatsiya

Maqolada o`zbek adabiyotida qo`llanib kelingan an`anaviy hamda G`arb adabiyoti ta`sirida paydo bo`lgan janrlar xususida dunyo adabiyotshunosligida hamda o`zbek olimlari tomonidan bildirilgan nazariyalar, tezislar, konsepsiyalar haqidagi umumlashma xulosalar keltiriladi. Tadqiq obykti sifatida olingan manbalar adabiyotshunoslikda juda qimmatli va umrboqiy ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Kalit so`zlar: epos, lirika, drama, liro-epik tur; intim, ramziy, voeaband, hajviy, lirika; estetik belgi, pafos; musallas, murabba, muxammas, musaddas; sonnet, ballada, invektiva

Kirish. Ma'lumki, badiiy adabiyotning uzoq davom etgan tarixiy taraqqiyoti natijasida xilma-xil asarlar yaratilgan. Badiiy asarlar mazmunan bir-biriga qisman o`xshasa-da, shakl, hajm jihati bilan bir-biridan farq qiladi. Aristotel "Poetika" asarining uchinchi bobida adabiy asarlarni uchta katta guruhga, epos, lirika hamda dramaga ajratadi. Mashhur nemis shoiri Gyotening qayd etishicha, poeziyaning uch xil tabiiy shakli mavjud: ochiq hikoya qiluvchi shakl-epopeya, kechinmani hayajonli tasvirlovchi shakl-drama.¹ Ingliz tilidagi adabiyotlarda ham adabiy turlarga bo`lishda shu an`ana saqlab qolinsa-da, bu uch jinsning nomlanishlari sal boshacharoq: pyesa, ertak va qo`shiq. Ingliz adabiyotshunosi E.S.Dallasning fikricha, drama- bu ikkinchi shaxs. Hozirgi zamon; epos-uchinchi shaxs, o`tgan zamon; lirika esa-birinchi shaxs, kelasi zamoni ifoda etadi.²

V.G Belinskiyning "Poeziyaning xil va turlarga bo`linishi" asarida ham Aristotelning badiiy asarlarni uch turga bo`lish nazariyasi e`trof etiladi hamda shu konsepsiya konkret asarlar tahlili misolida ko`rsatib o`tiladi.³

Rus nazariyotchisi L.Timofeev uch turga liro-epik tur (she`riy roman, doston, ballada, masal, oda), tarixiy-badiiy tur (ocherk, reportaj, kundalikni va satira)ni qo`shadi. Garchi o`zbek adabiyotshunosligidan N.Shukurov, T.Boboyevlar "liro-

¹ Маркевич Г. Основные проблемы науки о литературе, М., 1980, стр.170.

² Уэллик Р., Уоррен О. Теория литературы. Москва, 1978, стр. 245.

³ Белинский В. Танланган асарлар. Тошкент., Ўздавнашр, 1955., 131-213-бетлар.



epik” tur tushunchasini ma’qullagan bo’lsalar-da, biroq bu konsepsiya umumiste’molga singib ketmadi.

Asosiy qism. Biz tadqiqot obyekti sifatida tanlagan shoirlarimiz ijodida liro-epik asarlar: doston, dramatik doston, she’riy qissa, ballada, masal kabi janrlar mavjudligi bois “liro-epik tur” masalasiga o`rni bilan murojaat qilamiz. Umuman, adabiy tur va janr masalasiga tayanib, qotib qolgan dogma sifatida qarash noo`rin. Chunki ijtimoiy hayotning ma`lum bir davrlarida muayyan bir janr tug`ilishi, kamolot bosqichiga ko`tarilishi hamda inqiroz davrini boshdan kechirishi mumkin. Bunga adabiyot tarixidan ko`plab misollar keltira olamiz. Adabiyot nazariyasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda bayon etilgan, ilgari surilgan fikr-mulohazalarning aksariyatini umumlashtirib aytish lozimki, o`zining nisbatan qat`iy qonun-qoidalarini qisman saqlab qolgan asarlar dramatik tur janrlaridir. Bu masalada lirikaning mumtoz adabiyotga xos an`anaviy janrlarini ham kiritib o`tishimiz joiz. Biroq bugungi adabiy jarayon, zamonaviy she`riyat nuqtayi nazaridan an`anaviy janrlarning salmog`i uncha yuqori emas. Shu bois o`tgan asrning 20-yillaridan buyon, salkam yuz yillik vaqt davomida yangi davr she`riyatini atroflicha o`rganish va tasnif etishga qaratilgan bir qancha nuqtayi nazarlarga duch kelamiz. Bu masalada turli-tuman ilmiy-nazariy qarashlar bildirilgan, muayyan konsepsiyalar ishlab chiqilgan bo`lsa-da, zamonaviy she`r va uning shakllari borasida yagona to`xtamga kelingani yo`q.

“She`riy mahsulotni shartli ravishda “siyosiy lirika”, ishqiy (intim) lirika va shunga o`xshashlarga ajratish ham uchraydiki, buni ilmiy asosga ega deb hisoblash qiyin”, deb yozadi I.Sulton.⁴ Bizningcha, bu o`rinda akademik Izzat Sulton professor N.Shukorovning she`riy janr va shakllarga bergan ta`rifini nazarda tutmoqda.

“Lirik asarlarning janrini aniqlashda mazmuni, ruhi, stilistik xususiyatlari va obrazli strukturasi kelib chiqish lozim, -deb yozadi N.Shukurov.-Ana shunda lirika janrlarini aniqlash imkoniyati vujudga keladi. O`zbek poeziyasida lirikaning quyidagi xillarini ajratib ko`rsatish mumkin: 1.Ijtimoiy-publisistik lirika. 2.Intim lirika. 3.Ramziy lirika. 4.Voqeaband lirika. 5.Hajviy lirika”.⁵

Bugungi adabiy-nazariy qarashlar nutayi nazaridan ushbu tasnifda ham muayyan bahs-munozarali o`rinlar mavjud. Jumladan, ba`zi voqeaband she`rlar hajviy xarakterga ham ega bo`lishi mumkin. Masalan, A.Oripovning “Sharq hikoyati”, “Hangoma” she`rlari kabi; Yoki Xurshid Davronning “Uchrashuv” (O`tmishdan)

⁴ Султон И. Адабиёт назарияси., Тошкент., “Ўқитувчи” нашриёти, 1980-йил.

⁵ Шукуров Н. Услублар ва жанрлар.- Тошкент. 1977, 96-бет.



she`rida ham voqeaband va intim lirika xususiyatlari chatishib ketgan. Biroq bahsga sabab bo`lishi mumkin bo`lgan jihatlaridan qat`iy nazar ushbu tasnif zamonaviy she`rning umumiy ruhi va ohangini aniqlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi, albatta.

Professor U.To`ychiyev lirik tur va janrlarni tasnif qilar ekan, ularni, avvalo, ikki katta guruhga ajratadi: 1.Mazmun jihatdan tashkil topgan janrlar. 2.Shakl jihatdan tashkil topgan janrlar. Hamda har ikki guruhni yana uch bo`linga ajratadi. Mazmun jihatdan a)estetik belgi, pafos va muayyan mazmun yo`nalishiga asoslanadigan janrlar: marsiya, elegiya, inpektiva va boshqalar; b)asosan, musiqa asari hisoblansada, adabiy matnga ham suyangan janrlar: romans, kantanta, marsh va boshqalar; v) og`zaki va yozma lirikada qo`llanib kelingan janrlar: alla, yor-yor.

Shakl jihatdan esa a)shakl mazmundorligi va tuzilishiga ko`ra lirika janrlari: aytishuv, mustazod, sonet va boshqalar; b) misra soni va kompozitsiyaga ko`ra lirika janrlari: musallas, murabba, muxammas, musaddas va boshqalar; v)qayta tashkil topish (transformatsiya)ga ko`ra lirika janrlari: qit`aiy, kesishgan, taronaiy, ruboiyona.

Mazkur tasnif ham zamonaviy lirika janr va shakllariga to`la muvofiq keladi, deb aytish qiyin. Boisi ba`zi bir bo`limlarda bildirilgan fikr-mulohazalar kuchli ilmiy-nazariy qarashlarga unchalik ham muvofiq kelmayotgandek taassurot qoldiradi. Masalan, qayta tashkil topishga ko`ra ruboiyonanani ko`rib o`taylik. Adabiyotshunos bu shaklga quyidagicha ta`rif beradi: “Ruboiyona (aaba, bbgb). Bu janrni ruboiyning eng ko`p foydalanilgan xili nomini nisbat berish yo`li bilan shunday ataldi; ohangdoshligi kontrastdir. Ruboiyning bu tashqi shaklini ko`p bandli she`rga dastak qilib olish ruboiyona janrining muhim belgisidir.U boshqa jihatlardan cheklanmaydi. Ruboiyona she`r shakli asosan inqilob arafasida feodal tartiblarga, mafkuraning eskirgan tomonlariga qarshi kurashda xurofotni qoralash, ilg`or intilishlarni ma`qullash asosida kelib chiqdi. Ammo ruboiy tarzi bo`lgan mazkur to`rtlik shakli xalq o`gzaki poeziyasida ham, Mahmud Koshg`ariyning “Devon-ulug`otit turk” asarida ham bor. Folklordagi “Dangasa” she`rida ishyoqmasning yaramas ruhiyati ochib berilgan.

Realizm va ma`rifatparvarlik ruboiyona janriga ham yaxshi mos keldi. Hamza “Olim va johil haqida”, “O`ruk”, “Gilos”, “Olucha” (1914), “Erlar bilan qizlar” , “Eshonlar holidan”(1916) she`rlarini ruboiyona janrida yozdi va bu janrni beruvchilardan bo`ldi. Hamza ma`rifatparvarlik aks etgan bu she`rlarida ilmsizlikning kasofati va ilmlilikning sharofati haqida so`zlaydi; xushfe`llik, ayollarning tutqunligi va ilmsizligi to`g`risida gapirdi. Hamza bu davrdagi shunday she`rlarida Imning



mavqeyini oshirib ko`rsatdi, ilm ba`zi ijtimoiy jumboqlarni hal etolmasligini hisobga olmadi. Oxirgi she`rda ayrim eshonlarning ta`magirligi, ochko`zligi, beorligi va faqirlarni talashlari fosh qilingan. Haqiqatan, xurofot va uni vosita qilib olib, kun ko`ruvchi ba`zi ruhoniyy va eshonlarning kirdikorlarini ochib tashlash Hamza ilgari surgan dasturga kiradi”.⁶

Xulosa. Ushbu ta`rifdan anglashilib turibdiki, unda asosli ilmiy-nazariy qarashdan ko`ra ko`proq muallifning subyektiv qarashlari hamda asos sifatida keltirilgan she`rlarining ma`no-mazmuniga e`tibor qaratilgan. Shu bo`limga kiritilgan qit`aiy, kesishgan, taronaiy haqida ham shunday xulosalarga kelish mumkin. Biroq U. To`ychiyevning ham o`ziga xos ma`lum bir tasnifni keltirib o`tganligini e`tirof etishimiz zarur. Chunki she`riy janr va shakllarni o`zbek adabiyotshunosligida ilk bor mazmun va shakl e`tibori bilan tasnif etish amalga oshirilgan va tegisli xuloslarga kelingan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

- 1.D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug`ati. Toshkent. Akadernashr. 2010- yil.-400 bet.
- 2.Erkin Xudoyberdiyev. Adabiyotshunoslikka kirish. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent. 2008-yil. – 368 bet
- 3.O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. “O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. 10-jild. 2005-yil
- 4.Sulton I. Adabiyot nazariyasi., Toshkent., “O`qituvchi” nashriyoti, 1980-yil,272 bet.
5. Shukurov N. Uslublar va janrlar.- Toshkent. 1977, 396-bet.



⁶ Adabiy tur va janrlar. Uch tomlik, II tom. Lirik. Toshkent. Fan., 1992. 235-236-betlar.